

Qo‘shko‘pir tuman axborot kutubxona markazi

“Yoz – o‘tmoqda soz”



Qo‘shko‘pir – 2025 y.

Qo‘shko‘pir tuman axborot – kutubxona markazi bibliografiya xizmati

“Yoz – o‘tmoqda soz”

(kutubxona xodimlariga yozgi ta’ilda oromgohlarda foydalanish uchun uslubiy
qo‘llanma)

Qo‘shko‘pir – 2025 y.

613.74(072)

Yo 21

Qo'shko'pir tuman Axborot – kutubxona markazi
Axborot bibliografiya xizmati tamonidan tayyorlandi.

Tuzuvchi: J.Norboyeva

Ma'sul muxarrir: G.Saidova

"Yoz – o'tmoqda soz"

Yozgi ta'tilda oromgohlarga xizmat ko'rsatuvchi maktab kutubxonalari uchun uslubiy va amaliy yordam berish: Uslubiy qo'llanma/ Qo'shko'pir AKM;
Tuzuvchi J.Norboyeva va kompyuterda tuzuvchi S.Zarifboyeva.
Xorazm Viloyati Qo'shko'pir tuman Axborot-kutubxona markazi, 2025.- 23 b.

УДК 613.74(072)

Ushbu uslubiy qo'llanmada yoz mavsumida oromgohlarda o'tkazilishi mumkin bo'lgan ommaviy tadbirlar jamlanib, oromgoh tarbiyachilari, to'garak rahbarlari va maktab kutubxonachilari tomonidan foydalanishi ko'zda tutilgan.

Kirish so'zi

Har yili yoz mavsumi boshlanishi bilan bolajonlarimiz oromgohlarga shoshiladilar. Chunki u yerd ular ko'plab do'stlar orttiradilar, bir-biridan qiziqarli o'yinlar tarbiyachilar tomonidan tayyorlab qo'yilganini biladilar. Bolami bo'sh vaqti bo'lmasligi uchun ulami yanayam qiziqtirish maqsadida quyidagi qo'llanmani tayyorladik.

Qo'llanmada mantiqiy savol javoblar, she'rlar, ertaklar, o'rin olgan.

Qo'llanmadan o'rin olgan xalq o'yinlari orqali hayotga qarashlari, jamiyat hayotidagi ishtiroki, ruhiyatini bilib olish mumkin bo'ladi. Chunki o'yinlar davomida ishtirokchining qanday qarorga kelishi, nimani tanlashi, nimani inker etishi orqali uning madaniyati, ma'naviy olami, tarbiyasi, ruhiyati, ichki kechinmalari ham namoyon bo'ladi.

Qo'llanmaning bu singari yutuqli jihaiari nihoyatda ko'p. Qo'llanma mundarijasiga qarab ham unda nihoyatda katta material to'planganligini ko'rish mumkin. Yuqoridagilami hisobga olib, qo'llanmani o'qish va foydalanishgatavsiya etamiz.



BOLALAR O‘YINLARI

O‘lkamiz uzra yoz kelishi bilan bolalik xotiralar yodga tushadi. Qiru adirlarni bolalrning shodon qiyqiriqlari tutardi. O‘g‘il bolalar alohida, qizlar alohida bo‘lib, turli o‘yinlar o‘ynashardi. Arqon tortish, chillak, lanka, beshtosh, quvlashmachoq, bekinmachoq singari o‘yinlar o‘ynardik.

Quyida ular haqida o‘zim bilganlarim va manbalar asosida tayyorlagan ma’lumotlarni e’tiboringizga havola qilaman.

Arqon tortish



Bu o‘yin oddiyligi, shu bilan birga qadimiyligi bilan kishini o‘ziga jalb etadi.

O‘yinga kamida 5 nafardan jami — 10 nafar bola tanlanadi. Ular teng miqdorda ikki jamoaga bo‘linadi. O‘rta chiziq tortilib, jamoalar uning ikki tarafidan joy olishadi. So‘ngra arqon ushlagan jamoa a‘zolari kurashga kirishadilar. Qaysi taraf ikkinchi tarafni arqonni tortib, chiziqdan o‘tishini ta‘minlasa, o‘sha jamoa g‘olib hisoblanadi.

Ayni paytda bolalarbop bu xalq o‘yini anchayin unutilib qoldi. Bolalar o‘yinlarini negadir zamonaviy uslubdagi o‘yinlar egallab olmoqda. Holbuki, zamonaviy o‘yinlar alohida tayyorgarlik hamda sharoitni ham talab qiladi. Arqon tortish singari oddiy va qulay o‘yinlarni yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilishimiz, ularni qiziqtirishimiz lozim. Toki, xalq o‘yinlari unutilib ketmasin.

Lanka



Ochig'i, bu o'yin ham unutilayotgan xalq o'yinlari qatoridan joy olganiga ancha bo'ldi. Bolaligimizda buvilarimizning po'stagining chetidan ularga sezdirmasdan bir parchagina kesib olib, uning tagiga tangadek qo'rg'oshinni teshib sim bilan mustahkamlab lanka tayyorlardik. Hatto, lanka tayyorlovchi ustalar ham oramizda ko'p edi. Kimning lankasi soz tepilsa, ana shu lankaga ishqibozlar ko'payib ketardi.

Bu o'yinning bolani jismoniy jihatdan chiniqtirishda ahamiyati juda kattadir. Negaki, lanka tepayotgan bolaning nafaqat oyog'i, oyog'idan to boshigacha bo'lgan butun vujudi harakatda bo'ladi. Lankani tepish jarayonida uning harakatini ko'z bilan kuzatasiz. Bu holat ko'rish qobiliyatini chiniqtirib, mustahkamlashga xizmat qiladi. Har gal yuqoridan oyog'ingizga kelib tushgan lankaning harakatini ovoz chiqarib sanab borasiz. Bu jarayon esa bolaning fikrlash qobiliyati va oddiy hisob-kitob mahoratini oshiradi. Qo'l, yelka, ko'krak, bosh harakatlarida ham ana shunday ham orombaxsh, ham shifobaxsh lahzalarni tuyish mumkin.

Bu o'yin ham unutilib borayotganligi tashvishlidir.

Chillak



Eng oddiy xalq o'yinlaridan biri chillakdir.

Bunda atigi 3 dona ingichka yog'och parchasi ishlatiladi. Ko'ndalang qo'yilgan yog'ochni dastlab yuqoriga ko'tarib, qo'ldagi ikkinchi yog'och bilan urib, uzoqroqqa uloqtirish o'yinning bosh qoidalaridan biri hisoblanadi. Yog'och qancha uzoqqa uloqtirilsa, uni egallashga harakat

qiladigan jamoa a'zolari shunchalik tez va chaqqon yugurishadi. O'yinning ana shu o'ziga xos qoidasi bolalarni jismoniy chiniqtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda xalq o'yinlari va milliy sport turlariga e'tibor kuchaytirilmoqda. Biroq bu e'tibor rasmiy tadbirlardagina ko'zga tashlanadi. Negadir xalq o'yinlari har kuni o'ynaladigan darajaga ko'tarilmayapti.

Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" asarida 150 ga yaqin milliy va 20 dan ortiq bolalar o'yini haqida ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Shu ma'lumotning o'zi ham milliy xalq o'yinlari ildizlari asrlar qa'riga singib ketganligini bildiradi. Xalq o'yinlarini faqat rasmiy tadbirlarda emas, har kunlik mashg'ulotga aylantirishimiz zarur. Negaki, har bir xalq o'yini insonni ham ma'nan, ham jismonan, ham ruhan tetiklashtiradi.

Jonkuyar



Qizlar ikki tomonda turib olib, o'rtadagi dugonasini to'p bilan urib safdan chiqarishdan iborat o'yin nomi. Andijon tomonda bu o'yin *lopta* deyiladi. O'rtaga chiqqan qiz dugonalari otgan koptokni yo ilib olib "jon" yig'ishi, yo koptokka chap berishi kerak. Uloqtirilgan to'p ilib olinmasa yoki to'p badanning biror joyiga tegsa, yig'gan "jon"i kuyadi – bekor bo'ladi va o'yindan chiqadi. Shuning uchun *jonkuyar* deyilgan.

To‘ptosh



Danakdek-danakdek toshchani bexato otib-ilib marraga to‘plashdan iborat qiz bolalar o‘yini va uning nomi. Bu o‘yinda toshchalardan birini otib ikkinchisi epchillik bilan marraga surib qo‘yish kerak bo‘ladi. O‘zi otgan toshchani ilib olmagan qiz galni dugonasiga o‘tkazadi. O‘yin toshchalarni kim tez marraga yig‘ib bo‘lguncha davom etadi.

Quloqcho‘zma



To‘y, hayit va boshqa sayillarda o‘g‘il bolalar ishtirokida o‘tadigan o‘yin. O‘yinni bakovul – katta yoshli kishi boshqaradi. U ro‘molchaga pul yoki boshqa sovrinni tugib yuqoriga otadi. Bolalar epchillik bilan uni ilib oladi va qochib ketadi. Ilib olgan bola tengdoshlariga tutqazmay marraga yetib borishi kerak. Agar tengdoshlari yetib olsa, uni qulog‘idan cho‘zib sovrinni berishga majbur qiladi. Shuning uchun *quloqcho‘zma* deyiladi.

Xolakam



Qiz bolalarning mehmon-mehmon o'yini. Qo'qon va atrof tumanlarida bu o'yin *xolakam-xolakam* deb ataladi. Bu o'yinda qizchalar bir nechasi mehmon, biri mezbbon rolini bajaradi. Mezbbon qiz mehmonni kutib olishi, mehmon qilishi va kuzatib qo'yishi kerak. Xolakam o'yini qizlarda mehmon kutish odobini tarbiyalaydi. O'yin yakunida qizlarning o'zi kim yaxshi mehmon kutganini aniqlaydilar.

Bekinmachoq



Yashiringan bolalarni qidirib topishdan iborat bolalar o'yini. Shunga o'xshash o'yin Farg'ona vodiysida *yashintopaloq* deyiladi. *Yashintopaloq* kechqurun o'ynalishi bilan *bekinmachoq*dan farq qiladi. *Bekinmachoq*da epchillik bilan yashirinish zarurligi uchun *bekinmachoq* deyilgan. *Yashintopaloq*da yashirinib olgan o'rtoqlarini ziyraklik ko'rsatib topish kerakligi uchun *yashintopaloq* deb atalgan.

Innana



Uzun yog‘och yoki taxtani biror g‘o‘la ustiga muvozanatli o‘rnatib, ikki boshiga ikki kishi o‘tirib olib, navbat bilan ko‘tarilib-tushib o‘ynaladigan bolalar o‘yini va shunday moslamaning o‘zi.

Aji-aji



Bolalarning o‘zlaridan kichik bolalarga “aji”, “aji” deb o‘ynaydigan o‘yini. Bunda kattaroq bola yuz-ko‘zini ikki qo‘li bilan to‘sib, keyin ochadi. Ana shu paytda “aji”, “aji” deb kichikroq bolani kuldirib hayron qoldiradi. O‘yin nomi unda aytiladigan so‘zdan olingan.

Vizvizak



Tugma yoki boshqa narsadan ip o'tkazib, ikki qo'l barmoqlaridan biriga o'rnatib, ikki yonga tortish va bo'shatish bilan viz-viz tovush chiqartirib o'ynaladigan bolalar o'yini. Bu o'yin ayrim joylarda *bizbizak* deb ataladi. Bu o'yin anjomidan chiqadigan tovushni "viz-viz" deb eshitganlar uni *vizvizak* deb ataganlar. Aksincha, o'yin anjomidan chiqadigan tovushni "biz-biz" tarzida eshitganlar *bizbizak* deb nomlaganlar. Ammo ikkalasi ham bitta o'yin turi.

Ot-otakam



Bir bola ikkinchi bolaning etagidan ushlab ot qilib yoki yog'och ot minib chopishdan iborat bolalar o'yini. Ot-otakam o'yinini 6-7 yoshli o'g'il bolalar erta bahorda o'ynagan. Bu o'yinda bolalar tol yoki tut novdasini ot kallasiga o'xshatib egib oladi va uni ot qilib minib yuradilar. *Ot-otakam* deyilishiga shu sabab bo'lgan.

Paqpaq



Bolalarning bir bo‘lak loyni piyola shakliga keltirib, to‘ntarib yerga urib paqillatish o‘yini. Qo‘qon taraflarda bu o‘yin *loyporsildoq* deyiladi. Ko‘pincha yoz oylarida o‘ynaladi. Loyni yerga urganda chiqadigan ovoz “paq” yoki “pors” deb eshitilganligi uchun *paqpaq* yoki *loyporsildoq* deyilgan.

Hammompish



O‘g‘il va qiz bolalar nam tuproqni yoki loyni hammom shaklida gumbaz qilib o‘ynaydigan o‘yin. Bolalar loy obdon pishishi uchun xamirdek mushtlaydilar. Loy silliq bo‘lib yetilgach, o‘yin uchun tayyor bo‘lgan hisoblanadi. Bolalar loyni pishirib hammom qurgani uchun *hammom pish* – *hammom qur* deyilgan. G.Mardonovanning yozishicha, bu o‘yinni qizlar o‘ynaganda o‘yinni onaboshi boshqaradi. Onaboshi qizchalarga loydan zuvala tayyorlatadi. Keyin quyidagi she‘rni aytgan: *Tomga chiqdim tarozi qursin, Manavi qizning arozi qursin. Qizil ko‘ylak tomdan tush, Zuvalangdan hammom pish.* Pish so‘zi kimga to‘g‘ri kelsa, o‘sha qiz chetga chiqib turadi.

Shu tarzda she'r aytilib, *pish* so'zi to'g'ri kelgan qiz davradan chiqaveradi. Oxirida qolgan qiz: *Qizil qiz tomdan tushibdi, Xamirim, xamir pishibdi*, deb qo'lidagi loy zuvalasini bor kuchi bilan yerga uradi. U paqillab gumbaz shaklida tushishi va bosh tomonidan loy sachrab, og'zi ochilishi kerak. Agar bunday bo'lmasa, qiz o'rtoqlari aytgan shartni bajaradi. Bunda she'r, ashula aytiriladi yoki uy-ro'zg'or ishlari bajariladi. "*Hammompish*" o'yini kulollar hayotidan olingan bo'lib, o'yin bolalarning qo'llari uquvli bo'lishiga yordam beradi.

Topishmoqlar

Kitob haqida

Daraxt emas, yaproqli,
Ko'ylak emas, etakli,
Odam emas so'zlaydi,
Turli kuylar kuylaydi.

(Javobi: Kitob)

Ustida qopqoq,
Tagida qopqoq,
Ichinda yaproq.

(Javobi: Kitob)

Tilsiz, aql o'rgatar.

(Javobi: Kitob)

Bodomcha bodomcha bilan,
Yetti kalit tom bilan.
Ne ko'zi bor, ne og'zi bor,
So'ylashadi odam bilan.

(Javobi: Kitob)

Tabiat haqida

Oltin kelganda, kumush ketar,
Kumush kelganda, oltin ketar.

(Quyosh, Oy)

Bir parcha patir,
Olamga tatir.

(Oy)

Onasi bitta.
Bolasi mingta.

(Oy va yulduzlar)

Zar gilam, zar-zar gilam,
Ko'taray desam, og'ir gilam.

(Yer)

Ketaveradi, ketaveradi,
Orqasiga qaramaydi.

(Suv, ariq)

Ko'zga ko'rinmas,
Qo'lga tutilmas.

(Havo)

Oppoqqina dasturxon,
Yer yuzini qoplagan.

(Qor)

Oq tovuq,
Katagi sovuq.

(Qor)

Oqqina tovuq xirmon sochar.

(Qor)

Oq sigir turib ketdi,
Qora sigir yotib qoldi.
(Qor, yer)

Qo‘lsiz, oyoqsiz eshik ochar.
(Shamol)

Chopsa, chopilmas,
Kessa, kesilmas.
(Soya)

Hayvonlar haqida

Suvday chopadi,
Manzilga yetadi.
(Ot)

To‘rt oyoqli,
Temir tuyoqli.
(Ot)

Suvga tushsa mingta,
Suvdan chiqsa bitta.
(Otning dumi)

Quyon emas,
Uzun quloq,
Ot emas,
To‘rtta tuyoq.
(Eshak)

Tapir-tupir to'rtovlon,
Hangragani birovlon.

(Eshak)

Oyog'i popik,
Og'zi ko'pik.

(Tuya)

Bu yoqqa o'tdi lop-lop,
U yoqqa o'tdi lop-lop.
«Sho'ra» dedi, qo'ymadi,
Yutaverdi soplab.

(Tuya)

O'zi katta,
Dumi kalta.

(Tuya)

Soyada yotar,
Ming qo'y boqar.

(It, kuchuk)

Uyday joyni olar,
Sichqondan qo'rqar.

(Fil)

Tuya desam, kattakon,
Usti keng, bir makon.

(Fil)

Qanoti bor uchmaydi,
Quruqlikda yurmaydi.

(Baliq)

Osti tosh, usti tosh,
Oʻrtasida chandir bosh.

(Toshbaqa)

Togʻu toshlarda toshtovoq,
Ichi toʻla goʻshtu yogʻ.

(Toshbaqa)

Emaklagan toshni koʻrdim,
Toshdan chiqqan boshni koʻrdim:

(Toshbaqa)

Qushlar haqida topishmoqlar

Kasbi doim taqir-tuqur,
Qayda ilon koʻrsa choʻqir.

(Laylak)

Yuqoridan keladi zebogina tovshi bor,
Oyogʻida paxmoqqina kovshi bor.

(Kaklik)

Saroyda sari otim,
Sebi bilan kishnaydi,
Toʻqayda toʻriq otim,
Toʻpi bilan kishnaydi.

(Kaklik)

Surp koʻylaklik,
Selon kamzullik.

(Olashaqshaq)

Atlas koʻylak qanoti,
Xush xabarchi odati.

(Zagʻizgʻon)

Yozda keladi,
Qishda ketadi.
(Zag'izg'on)

Gul ustida olifta ashulachi.
(Bulbul)

Zuv-zuv borag'ay,
Tomdan qarag'ay.
Cho'p, loy cho'qig'ay,
Savat to'qig'ay.
(Qaldirg'och)

Mevalar haqida topishmoqlar

Osh ichida tosh,
Tosh ichida osh.
(O'rik)

O'zi shirin, tukligina,
Mazasi bor, totligina.
(Shaftoli)

Bodom kabi yaprog'i,
Sollanadi butog'i.
(Shaftoli)

Past-past bo'yi bor,
Malla to'ni bor.
(Behi)

Mallagina to'ni bor,
Nordongina ta'mi bor.
(Behi)

Dum-dumaloq bo‘yi bor,
Palovda obro‘yi bor.

(Behi)

Tashi qizil anorday,
Ichi oq — unday,
O‘tirishi gulday.

(Jiyda)

Kichkina dekcha,
Ichi to‘la mixcha.

(Anor)

Kichkina gumbaz ichida
Qizlar aylabdi makon.
Yuzlarida parda tutig‘lik,
Har birining bag‘ri qon.

(Anor)

Gulsiz bo‘lar mevasi,
Shirin-shirin donasi.

(Anjir)

Osti sariq, usti sariq,
Shirin, totli, ichi tariq.

(Anjir)

Tepdim, sandiq ochildi,
Yerga bodom sochildi.

(Do‘lana)

She'rlar

Vatanim O'zbekiston!

Vatanim O'zbekiston!
Yurtboshimdir mehribon.
Mustaqil bolalarimiz,
Yurt gulu lolalarimiz.

Meni sevgan elimsan
Iftixor, g'ururimsan!
O'zbekiston bu bo'ston,
Bo'ston hamda guliston.

Yashnar O'zbekistonim,
Ona yurt jon jahonim.
Tug'ilib o'sgan joyim,
O'zbekiston Turonim!

Maktabim

Jonajonim maktabim,
Qadrdonim maktabim,
Xuddi uyimdek aziz,
Oshiyonim maktabim.

Har kun tongda shoshaman,
Sinf dan sinfga oshaman,
Bilimga qo'shib bilim,
Daryolardek toshaman.

Muallimlar mehribon,
O'rgatar olam jahon.
Doim faxr etaman,
Maktabim, sen onajon!

Tandir to'la nonlarning

Tandir to'la nonlarning,
Pishmoq sirin o'ylayman.
Non yopilgan tandirga,
Shoshilmasdan bo'ylayman.

Biram issiq — gumbaz cho'g'
Kuydirgudek yuzimni.
Darrov ortga qaytaman,
To'sgancha qosh-ko'zimni.

Onajonim qo‘llari,
Nonni uzar saralab,
So‘ngra yupqa suv separ,
Savat uzra sevalab...

Qora Mushukcha

Oyi, qora mushukchaga,
Popuk taqib qo‘yaylik.
Oyi, qora mushukchani,
Oppoq rangga bo‘yaylik.

Shunda qora mushukchani,
Quvmas daydi bolalar.
“Falokatning belgisi” deb,
Atamaydi xolalar.

Hamma uni ko‘rgan oni,
Deydi: “Buncha chiroylik!”
Oyi, qora mushukchani,
Oppoq rangga bo‘yaylik.

Kitob o‘qigan bola

O‘rganar avval odob,
Kitob o‘qigan bola.
Yuzi bo‘ladi oftob,
Kitob o‘qigan bola.

Hurmat qilar kattani,
Kichiklar jon-u tani,
Bajaradi va‘dani —
Kitob o‘qigan bola.

Suhbati xo‘p serma‘no,
Yurish-turishi a‘lo.
Olar faqat “besh” baho
Kitob o‘qigan bola.

Svetafor

Men agarda yonsam qizil,
Yo'lda aslo qilmang hazil.
Taqqo to'xtang shosha ko'rmang,
Joyingizda aslo jilmang.

Sqriq ko'zim chaqnaganda,
Hushyor bo'ling o'sha onda.
Qolmangiz deb mahtal bo'lib,
Yashil ko'zim chaqnar kulib.

O'tavering yo'l keng ochiq,
Turay sizga shu'la sochib.
Porloq bo'lsin yo'llaringiz,
Nurga to'sin dillaringiz.

Buvijonim

Biznikiga mehmonga,
Buvijonim keldilar.
Menga juda-juda ko'p,
Sovg'a olib keldilar.

Rahmat sizga buvijon,
Sizni yaxshi ko'raman.
Sizni qattiq quchoqlab,
Birga mazza qilaman.

Mundarija

Kirish soʻzi	3
BOLALAR OʻYINLARI	4
Jonkuyar	6
Toʻptosh	6
Quloqchoʻzma	7
Xolakam	8
Bekinmachoq.....	8
Innana	8
Aji-aji	9
Vizvizak	9
Ot-otakam.....	10
Paqpaq	10
Hammompish	11
Topishmoqlar.....	12
Kitob haqida	12
Tabiat haqida	12
Hayvonlar haqida	14
Qushlar haqida topishmoqlar	16
Mevalar haqida topishmoqlar	17
Sheʼrlar.....	19
Vatanim Oʻzbekiston!	19
Maktabim	19
Tandir toʻla nonlarning	19
Qora Mushukcha.....	20
Kitob oʻqigan bola	20
Svetafor	20
Buvijonim	21
Foydalanilgan adabiyotlar.....	25

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tarbiya kitobi. Ibratli rivoyat va hikmatlar / nashrga tayyorlovchi: Muhammadamin To‘xliyev. – Toshkent : Yurist – media markazi, 2017. – 160 b.
2. Internet ma’lumotlari.

Qo‘shko‘pir tuman Axborot – kutubxona markazi



Ish vaqti:

Soat: 8:00 dan 20:00 gacha

Shanba – Yakshanba 10:00 dan 17:00 gacha

Dam olish kunisiz

Har oyning oxirgi sanasi

“Tozalik” kuni o‘tkaziladi.

Manzil: Xorazm viloyat Qo‘shko‘pir tumani Beruniy ko‘chasi 10 – A uy

E – mail: kushkupirtakm@gmail.com

Internet manzili: <https://kushkupirtakm.mobirisesite.com/>